

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li

SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLGIK TADQIQOTLAR

VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI 11-19

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna

O'ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING O'RNI 20-24

Umarov Sardor Yakubovich

XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIIYASI VA

BIRLASHTIRISHNING MOLIIYAVII OQIBATLARI..... 25-31

Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich

AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ

TOPONIMLAR 32-37

Olimov Nodirbek Anvarjon o'g'li

QO'QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA'LUMOTLAR

(“TARIXI SHOHRUXII” ASARI MISOLIDA) 38-41

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon

DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIIYOTIDAGI O'RNI..... 42-45

Ahmedov Bahodir Ismailovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING

TARIXII BOSQICHLARI 46-55

Ravshanov Mahmud

ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVII YONDASHUV MASALALARI..... 56-59

Asadova Ra'no Baymanovna

O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI

VA ZAMONAVII BOSQICHLARI 60-64

Qurbonova Marg'uba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI

VA MILLII IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

(1991–2025 YILLAR TAHLILI) 65-68

Kamolova Habiba Muhammadiyevna

SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODII

INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR 69-74

Ergashev Umar Kuziyevich

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G'UZOR BEKLIGI AHOLISI

TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) 75-79

Ergashev Akhror

THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,

AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE

IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE 80-88

<i>Qurbonov Abbos Shonazarovich</i> SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH: YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR	89-93
<i>Esanova Nilufar</i> CHET EL INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI: XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	94-97
<i>Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich</i> "MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?" MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA)	98-105
<i>Ismatova Zulfizar</i> O'ZBEK MILLIY KIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI	106-114
<i>Abdualimova Durdona Shavkat qizi</i> G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI.....	115-125
<i>Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> YOSHLARNI IJTIMOYIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI	126-129
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI	130-134
08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI	
<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	135-142
<i>Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li</i> MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	143-151
<i>Sharipova Gulchehra Farhod qizi</i> IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE: IN THE CASE OF JAPAN	152-157
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR	158-162
<i>Sharopov Nurmuhammad Bobirovich</i> DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT: SUBSIDİYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR	163-166
<i>Ibragimov Nodir Nusriddinovich</i> AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK PROGNOZLASH USHLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI	167-174

<i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i> CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	175-179
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Raupova Ra'no Sohibovna</i> GLOBALASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH.....	180-184
<i>Mamayusupov Umidjon Kurbanovich</i> JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI	185-189
<i>Ergashev Ozodbek Shavkatovich</i> YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	190-194
<i>Alimova Shaxnoza Xamidovna</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	195-205
<i>Tolipov Baxtiyor</i> YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI	206-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI.....	212-218
<i>Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna</i> RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI	219-225
<i>Yekubova Mavluda Iskandarovna</i> RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK	226-232
<i>Madraximov Atabek Abduraximovich</i> EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI	233-238
<i>Рахматов Нуриддин Негкадамович</i> МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ	239-243
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLILIKLARGA QIZIQISHNING IJTIMOYIY SABAB VA OQIBATLARI	244-247
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li</i> INSON FALSAFASI	248-252
<i>Baratova Madina Xasanovna</i> KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOYIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOYIY OMILLAR	253-259
<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOYILLAR VA IJTIMOYIY NOMUTANOSIBLIKLAR TAHLILI	260-269
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS	270-274

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Kaniyazova Jupargul Orinbayevna</i> THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH. AITMATOV	275-280
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА)	281-285
<i>Sanaqulova Fayoza</i> REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR	286-289
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY	290-293
<i>Norqobilova Nigora Uralovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI	294-298
<i>Ahmedova Fayyoza Rashidovna</i> O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI	299-306
<i>Elmuratova Zamira Khodjamuratovna</i> SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR	307-310

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Sultanova Sabohat Alisherovna</i> FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION"	311-317
<i>Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR	318-328
<i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	329-339
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI	340-346
<i>Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova</i> THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION	347-353
<i>Normatova Shirin Abdalnabiyevna</i> XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI	354-362

<i>Каюмова Асая Султномуродовна</i> ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	363-368
<i>Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi</i> KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ...	369-377
<i>Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li</i> VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV	378-392
<i>Amonov Zavqiddin</i> ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI	393-400
<i>Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich</i> YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI	401-405
<i>Makhmudjanova Mokhirakhon</i> ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY	406-411
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ: ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	412-418

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Utkirov Nusrat</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI- MODULLI YONDASHUVLAR	419-424
<i>Jamolova Shahlo Qobilovna</i> BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI ("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR. VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA)	425-428
<i>Rasulova Moxidil</i> TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI	429-438
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i> ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY TA'LIM BERISH	439-445
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i> BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI	446-449

Received: 20 October 2025
Accepted: 15 November 2025
Published: 30 November 2025

Article / Original Paper

LOCAL ETHNOGRAPHIC GROUPS OF THE POPULATION AND ASSOCIATED TOPONYMS

Eshonkulov Shakhzod Eshkuvatovich

Samarkand State Pedagogical Institute,
Associate Professor, Department of History

Abstract. This article explores the local-ethnographic groups of the population and the toponyms associated with them, highlighting the intricate relationship between cultural identity and geographic nomenclature. By analyzing historical records, ethnographic surveys, and linguistic evidence, the study demonstrates how place names reflect the settlement patterns, traditions, and socio-cultural interactions of various local communities. The research also examines the role of toponyms in preserving intangible cultural heritage and provides insights into regional identity formation. The findings contribute to the fields of ethnography, onomastics, and cultural geography, offering a comprehensive understanding of how local groups influence and are represented in geographical names.

Keywords: local-ethnographic groups, toponyms, cultural identity, settlement patterns, ethnography, onomastics, cultural geography, intangible heritage, regional identity, historical linguistics.

AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ TOPONIMLAR

Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich

Samarkand Davlat Pedagogika instituti,
Tarix kafedrasi dotsenti

E-mail: eshankulov1978@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholi lokal-etnografik guruhlar va ularga bog'liq toponimlar o'rganiladi, madaniy identifikatsiya va geografik nomlar o'rtasidagi murakkab bog'liqlik yoritiladi. Tarixiy manbalar, etnografik tadqiqotlar va lingvistik dalillar tahlil qilinishi, toponimlar turli mahalliy jamoalarning yashash joylari, an'analari va ijtimoiy-madaniy aloqalarini aks ettirishi ko'rsatiladi. Tadqiqot shuningdek, toponimlarning nomoddiy madaniy merosni saqlashdagi rolini va mintaqaviy identifikatsiyaning shakllanishiga ta'sirini o'rganadi. Natijalar etnografiya, onomastika va madaniy geografiya sohalariga hissa qo'shib, mahalliy guruhlar geografik nomlarda qanday aks etishini tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: lokal-etnografik guruhlar, toponimlar, madaniy identifikatsiya, yashash joylari, etnografiya, onomastika, madaniy geografiya, nomoddiy meros, mintaqaviy identifikatsiya, tarixiy lingvistika.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N04>

Kirish. Toponimika — xalqning tarixiy, madaniy va etnik taraqqiyotini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Har bir toponim — o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayoti, tabiiy-geografik sharoiti hamda etnik jarayonlari haqida muayyan ma'lumot beruvchi lingvistik yodgorlikdir. Ayniqsa, aholi guruhlarining lokal-etnografik xususiyatlari bilan bog'liq toponimlar xalqning joylashuvi, migratsion jarayonlari, mahalliy madaniyat shakllanishi va o'zaro ta'sirini tadqiq etishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston hududi qadimdan ko'plab etnik guruhlar, qabila va elatlar yashab kelgan makon sifatida toponimik qatlamda ham rang-baranglikni namoyon etadi. Bu jarayonda ayrim toponimlarning paydo bo'lishi ma'lum etnik guruhlar, urug' yoki qabilalarning nomi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning tarixiy izlarini saqlab qolgan. Shunday toponimlar nafaqat geografik atama sifatida, balki xalqning etnik xotirasi, o'zlikni anglash vositasi sifatida ham ahamiyatlidir.

Mazkur maqolada aholi tarkibining lokal-etnografik guruhlari va ular bilan bog'liq toponimik birliklarning shakllanish jarayonlari, nom berish motivlari hamda lingvistik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shu orqali toponimlar tizimida aks etgan etnik jarayonlarning tarixiy ildizlarini aniqlash, xalqning madaniy-geografik merosini chuqurroq anglash maqsad qilib olinadi.

XX asrda Zarafshon vohasida mavjud bo'lgan toponimlarni nafaqat o'z urug' nomini biluvchi aholiga xos joy nomlari, balki o'z nomida ilgari yashagan hudud – muayyan hudud bilan bog'liq nomlar ham tashkil etganligi ko'zga tashlanadi. Bular quyidagicha: urganji, mirishkor, qarshilik, balxi. Shuningdek, aynan bu kabi toponimlarga chodaklik, qo'qoni, jandlik, denovli kabilarni ham qo'shish mumkin. Asosan, ularning nomidan kelib chiqib mazkur nomlardagi qishloqlar aholisi ajdodlarining qaysi hududlardan ko'chib kelganliklarini aniqlash qiyin emas. Masalan, Urganji – Xorazm vohasidan, Qarshilik – Qashqadaryo vohasidan, Qo'qoni – Farg'ona vodiysidan va h.k. Shuningdek, "chig'atoy", "tot" kabi etnotoponimlarni ham shartli ravishda bu guruhga qo'shish mumkin.

"Urganji" nomli qishloq va mahallalar Buxoro viloyatining bir necha tumanlarida va Buxoro shahrida (bir necha mahallada), Samarqand viloyati-ning Qo'shrabot va Narpay tumanlarida, "Qarshilik" nomli 2 ta qishloq Pastdarg'om tumanida, "Mirishkor" nomli qishloq Samarqand viloyatining Payariq va Ishtixon tumanlarida, Buxoro viloyatining Qorako'l, Peshku, Buxoro, Romitan, Shofirkon, G'ijduvon tumanlarida, Navoiy viloyatining Karmana va Nurota tumanlarida, "Totkent" qishlog'i Narpay va Samarqand tumanlarida uchraydi[1; 7-8-b].

XX asrda hududiy guruh nomlari, garchi shakllanishi va etnik tarkibiga ko'ra an'anaviy turkiy urug'-qabilachilik tizimidan farqli bo'lsa-da, Markaziy Osiyoning turli hududlarida bo'lganidek Zarafshon vohasida ham asosan etniklik kasb etgan holda uchrashi ko'zga tashlanadi. Ya'ni, "92 o'zbek urug'i" tizimiga kirmasligiga qaramay, "urganji", "qarshilik" kabi hududiy guruh vakillari ham bu vaqtga kelib mahalliy aholi orasida xuddi muayyan bir etnik guruh yoki o'zbek urug'laridan biri sifatida talqin qilina boshlaganligiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, urganji guruhi vakillari Xorazm vohasidan ko'chib kelgan va asosan o'zbek tilining o'g'uz lahjasida so'zlashuvchi aholi o'laroq Zarafshon vohasidan tashqari mamlakatimizning bir necha viloyat va tumanlarida, xususan, Nurota tumanida, Farg'ona vodiysida ham o'z qishloqlarini barpo qilganlar va ular yashaydigan qishloqlar mahalliy aholi tomonidan "urganjilar" deb nomlangan[2; 17-18-b]. Ushbu hududiy guruh nomi bilan ataluvchi qishloqlarning salmog'iga Zarafshon vohasi misolida qarab chiqilsa, "Urganji" yoki "Urganchi" deb ataluvchi qishloqlarning Buxoro viloyatida ancha ko'pchilikni tashkil etishi ayon bo'ladi.

Urganjilarning mintaqa bo'ylab tarqalishi haqida turlicha fikrlar mavjud bo'lib, ular orasida Xorazmshoh-Anushteginiylar davri – XI–XII asrlarda xorazmlik qo'shinlarning Buxoro, Samarqand, Nurota, Sirdaryo havzalari, Farg'ona vodiysini egallashlari natijasida Xorazm vohasidan bir guruh aholining mazkur hududlarga kelib joylashganligi, shuningdek, so'nggi o'rta asrlarda, ya'ni o'zbek xonliklari davrida Buxoro amirligi – Xiva orasidagi jangu jadallar

paytida xorazmliklarning turli hududlarga ko'chish jarayonlari yuz berganligi borasidagi qarashlar keng yoyilgan[3;5-7-b]. Bizningcha, ushbu fikrlar orasida ikkinchisi nisbatan ishonchliroq. Chunki muayyan bir etnonimning qariyb ming yil davomida turli hududlarda o'z ma'nosini saqlab qolishidan ko'ra nisbatan yaqin asrlarda yuz bergan migratsiya jarayonlarining mintaqamizda ko'proq o'z ta'sirini saqlab qolganligiga guvoh bo'lamiz. Buni ko'chmanchi o'zbek urug'lari misolida yuqoridagi paragraflarda ko'rib o'tdik.

Zarafshon vohasi etnik jarayonlarida qo'shni hududlar, xususan, vohaga janubdan qo'shni Qashqadaryo vohasi o'ziga xos o'rin tutgan. Ayniqsa, Qashqadaryo vohasining shimoliy hududlari – shimoli-sharqdagi tog'li hududlar bo'lgan Kitob va Shahrisabz tumanlari Samarqand viloyatining Urgut tumani bilan, shuningdek, ushbu vohaning shimolidagi "Qarshi cho'li" (O'rtacho'lining janubiy tarmog'i) aholisi Zarafshon vohasi aholisi bilan muttasil ravishda etnomadaniy aloqalarda bo'lib kelgan. Ahamiyatlisi, har ikkala vohada ham asrlar bo'yi deyarli bir xil etnomadaniy jarayonlar yuz berishi natijasida ushbu vohalarda bir xil nomdagi aholi maskanlari – etnotoponimlar paydo bo'lgan[4; 71-72-b].

Ma'lumki, XX asr boshlarida Qarshi shahri Buxoro amirligi tarkibidagi 27 ta beklidkan biri – Qarshi bekligining ma'muriy markazi edi. Qarshi shahri Buxoro amirligining eng ko'p daromad keltiradigan shaharlaridan biri hisoblanib, amirlikning ikkinchi siyosiy markazi sifatida taxt merosxo'rining qarorgohi bo'lgan. So'nggi o'rta asrlarda Qashqadaryo vohasi va atrof hududlarda kechgan faol ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlarda Qarshi shahri o'ziga xos o'rin tutib, bu yer o'z joylashuviga ko'ra o'troq dehqon va chorvador dasht aholisi uchun muayyan bir madaniy makon vazifasini bajargan. Natijada bu yerda turli madaniyatlarning o'zaro qorishuvi yuz berib, shahar aholisiga xos sheva – o'zbek tili qarluq lahjasining alohida bir tarmog'i, urf-odat va an'analar (pazandachilik, hunarmandchilikning ayrim turlari – ko'pchilik, to'qimachilik, kandakorlik, misgarlik va h.k.) boyib borib, o'ziga xos shahar madaniyati tashkil topdi. Shu jihatlari tufayli so'nggi o'rta asrlarda mintaqamizning turli hududlarida Qarshi shahri va atroflaridan ko'chib borib joylashgan aholi toifasiga nisbatan "qarshilik", "qarshiliklar" atamasi qo'llanila boshladi[5;11-12-b]. Masalan, Samarqand viloyati (Pastdarg'om tumani), Surxondaryo viloyati, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'onistonda bir qator qishloq va mahallarda yashab, o'z turmush tarzi va madaniyati (hunarmandchiligi, etnomadaniyati) bilan birmuncha farqlangan aholi guruhi shu nom bilan atalishi bunga guvohlik beradi.

Shuningdek, Zarafshon vohasida nisbatan kam bo'lsa-da, "Balxi" nomli qishloq nomlari uchratiladi. Jumladan, Navoiy viloyatining Xatirchi tumanida, Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanlarida shunday nomdagi qishloqlar mavjud. Balxi muayyan bir etnonim sifatida o'zbeklarning qirq urug'i "qoracha" tarmog'ining bir bo'limi bo'lishi bilan birgalikda, qozoqlarning "kishi juz" (kichik juz)i tarkibida ham balxi shaklida saqlangan. Aslida bu etnonim Afg'onistonning shimolidagi tarixiy viloyat Balx bilan aloqador bo'lib, keyinchalik muayyan bir etnonimga aylangan bo'lishi mumkin. Ma'lumki, Balx viloyati ming yillar davomida turkiy sulolalar qo'l ostida bo'lib kelgan. Ayniqsa, ko'chmanchi o'zbeklar, Shayboniylar va Buxoro amirligi davrida ushbu viloyat mazkur davlat uyushmalarining strategik tayanch hududlaridan biri bo'lib, bu yerda ko'plab o'zbek urug'lari, shu jumladan, qirq urug'i vakillari ham yashaganlar. Ular mamlakatimizning ko'plab hududlaridagi o'z urug'doshlari bilan doimiy ravishda o'zaro aloqada bo'lib kelganlar[6; 55-58-b].

XX asrda Samarqand viloyatida (Samarqand, Qo'shrabot va Payariq tumanlarida), Buxoro viloyatida (Buxoro, Qorako'l, Romitan, Peshku, G'ijduvon va Shofirkon tumanlarida) va Navoiy viloyatining Karmana tumanida Mirishkor nomli bir necha aholi maskanlari mavjud bo'lgan. Vohada "Mirishkor" nomli toponimlarning paydo bo'lishi ham Qashqadaryo vohasi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Chunonchi, Qashqadaryo vohasining janubi-g'arbiy hududlari – qadimdan Kasbi mavzesi deb nomlangan hudud aholisi orasida "mirishkor" deb ataluvchi mahalliy aholi yashab, o'nlab qishloqlarga ega mazkur aholi guruhi o'zbek tilining qarluq lahjasida so'zlashishgan. An'anaviy o'zbek urug'lari ro'yxatida qayd etilmagan bo'lsa-da, mirishkorlar o'zbeklarning bir urug'i sifatida bilinib, asosan, o'troq turmush tarzida faoliyat yuritgan. Ma'lumki, "mirishkor" so'zi hozirgi kunda tilimizda "dehqon", "bog'bon" ma'nolarida qo'llaniladi.

Zarafshon vohasida Totkent nomli qishloq uchrashi esa ham etnik, ham regional aholi guruhlari nomlari bilan bog'liq. "Tot" atamasida qadimgi davrlarda turkiylar nazdida eroniy etnoslar tushunilgan bo'lib, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida (XI asr) "tat" atamasi asosan forsiylar, ba'zan esa musulmon bo'lmagan uyg'urlarga nisbatan qo'llanilgan. Aslida, bu atama "Devon"dan ancha oldin – VII–VIII asrlarda Turk xoqonligiga oid bitiktoshlarda uchraydi va mazmunan g'ayriturkiy etnoslar, xususan, eroniylar ma'nosini bildiradi. O'rta asrlarda esa "tot" atamasi ko'chmanchi turkiylar, xususan, turkmanlar tomonidan shahar va qishloqlarda yashovchi eroniy va turkiy o'troq aholiga nisbatan qo'llanilgan. XX asr boshlarida markaziy osiyolik turkiylarning ko'chmanchi qismi – qozoq va qirg'izlar o'troq turkiylar (asosan, o'zbek va uyg'urlar)ni "sart" deb atagan bo'lsalar, turkmanlar ham shunga muqobilroq ravishda o'zbek va tojiklarni "tot" deb ataganlar. Jumladan, turkmanlar Chorjuy shahri va atrofida yashovchi o'zbeklar "tot" deb nomlangan. Fikrimizcha, Zarafshon vohasida ham bu an'ananing davom etishi vohaning turkman aholisi bilan bog'liq bo'lib, Samarqand tumani va atroflarida yashovchi turkmanlar ta'sirida Totkent nomli toponimlar paydo bo'lgan[7; 91-92-b].

Zarafshon vohasida "Chig'atoy" nomli qishloqlar Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on va Ishtixon tumanlarida, Buxoro viloyatining Olot, Qorako'l va Shofirkon tumanlarida, Navoiy viloyatining Xatirchi tumanida uchraydi. Asosan, Surxondaryo viloyati aholisi orasida keng tarqalgan bu atama o'rta asrlar, xususan, Chig'atoy ulusi va Temuriylar davri mahsuli bo'lib, dastlab muayyan bir siyosiy uyushma aholisi uchun qo'llanilib, keyinchalik etniklik kasb eta borgan. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asarida "turk va chig'atoy" atamalari birga uchrab, asar mazmunidan "turk" etnonimi mintaqaholisinining katta qismi uchun umumiy nom, "chig'atoy" esa turkiylarning bir guruhining nomi sifatida qo'llanilgani anglashiladi[8; 51-52-b].

Aslida bu nom Markaziy Osiyoning sezilarli bir qismi Chingizxon tomonidan o'g'li Chig'atoyga ulus qilib berilgan tarixiy voqealilar bilan bog'liq ravishda, ya'ni "Chig'atoy ulusining xalqi" ma'nosida asta-sekin mintaqaning turkiy tilli aholisinining nomlaridan biriga aylana boradi. Shayboniylar va o'zbek xonliklari davrida "chig'atoy" atamasi ko'chmanchi o'zbeklardan farq qilib, asosan qishloq va shaharlarda yashab o'troq turmush tarziga ega mahalliy turkiy aholiga nisbatan qo'llanila boshlagan va shu tariqa ular qipchoq lahjasida so'zlashuvchi o'zbeklardan farqlangan[12; 50-55-b]. Bu davrda "chig'atoy" deb nomlanuvchi aholi guruhi Xorazm vohasi va Buxoro vohasining shimoliy qismlarida (Qorako'l) o'z aholi maskanlariga ega bo'lishgan. Shuningdek, bu paytda Afg'oniston va Hindistonda yashovchi

turkiylarning bir qismi shu nom bilan yuritilgan. XX asr boshlarida ushbu atama Buxoro amirligining janubiy hududlari – Surxondaryo viloyati, Janubiy Tojikiston (Ko'lob) va Shimoliy Afg'oniston aholisining sezilarli bir qismini tashkil etuvchi aholi guruhi "chig'atoy" atalib, ular "o'zbek chig'atoy" va "tojik chig'atoy"larga bo'linishgan[9; 93-94-b].

XX asrda Zarafshon vohasidagi toponimlar nafaqat mahalliy urug' nomlarini, balki turli hududlardan ko'chib kelgan aholi guruhlarini ham aks ettirganligi bilan ahamiyatlidir. "Urganji", "Qarshilik", "Mirishkor", "Balxi", "Qo'qoni", "Chig'atoy", "Tot" kabi nomlar nafaqat geografik joylashuvni belgilab bergan, balki ularning aholisi ajdodlari kelib chiqqan hududlar haqida ma'lumot beradi. Masalan, Urganji Xorazm vohasidan, Qarshilik Qashqadaryo vohasidan, Qo'qoni Farg'ona vodiysidan kelgan aholi bilan bog'liq. Shu tarzda, toponimlar orqali voha aholisi orasidagi migratsiya jarayonlarini va etnik tarkibni aniqlash mumkin[10; 172-b].

Hududiy guruh nomlari shakli va etnik tarkibi jihatidan an'anaviy turkiy urug' tizimidan farq qilsa-da, XX asrda Zarafshon vohasida ular mahalliy aholi tomonidan xuddi bir etnik guruh sifatida talqin qilingan. Urganji va Qarshilik kabi guruhlar o'z qishloqlarini voha va boshqa viloyatlarda barpo qilgan, bu esa ularning mahalliy aholi orasida etnik identifikatsiyasini mustahkamladi. Shu bilan birga, Qashqadaryo, Nurota, Farg'ona va boshqa qo'shni hududlar bilan uzviy aloqalar Zarafshon vohasida turli etnotoponimlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan[11; 13-17-b].

Shuningdek, toponimlar o'z ichida tarixiy va madaniy jarayonlarni aks ettiradi. Masalan, Mirishkor va Totkent nomlari orqali Qashqadaryo va turkman ta'siri, Chig'atoy nomi orqali Chingizxon davridan boshlab mintaqadagi siyosiy va etnik jarayonlar haqida ma'lumot olish mumkin. Balxi toponimi esa uzoq tarixiy aloqalarni, shu jumladan Afg'oniston shimolidagi Balx viloyati bilan bog'liqlikni ko'rsatadi.

Xulosa. O'zbekiston hududidagi toponimik qatlam xalqning uzoq asrlik etnik, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotining muhim ko'zgusi bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, aholi tarkibining lokal-etnografik guruhlarini bilan bog'liq toponimlar nafaqat geografik nom sifatida, balki o'z davrining etnik tarkibi, turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari va tarixiy xotirasini aks ettiruvchi madaniy-lingvistik fenomen sifatida ahamiyatlidir.

Bunday toponimlar xalq og'zaki ijodi, tarixiy manbalar va mahalliy dialektlar bilan uzviy bog'liq holda shakllangan bo'lib, ular orqali ma'lum bir hududda yashagan urug', qabila yoki etnik guruhlarining joylashuvi, ko'chish yo'nalishlari hamda o'zaro madaniy aloqalari haqida muhim ma'lumotlar olish mumkin. Shuningdek, etnotoponimlarning tahlili milliy toponimik merosni tizimlashtirish, ularni lingvistik jihatdan tasniflash hamda tarixiy-geografik kartografiyada qo'llash imkonini beradi.

Demak, aholi guruhlariga oid toponimlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik va tarix fanlari uchun, balki etnologiya, geografiya va madaniyatshunoslik kabi sohalar uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mahalliy toponimlarni yig'ish, ularning etimologik manbaini aniqlash va tizimli tahlil qilish O'zbekistonning tarixiy-etnik manzarasini yanada chuqurroq yoritish imkonini beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 105, 126, 152, 160, 166, 224

2. Маликов А.М. Тюркские этнонимы и этнотопонимы долины Зерафшана ... – С. 96–97.
3. Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат архиви (ЎЗР МДА), 126–фонд, 1-рўйхат, 51–иш, 42–44-варақлар
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Маликов А.М. Тюркские этнонимы и этнотопонимы долины Зерафшана ... – С.148.
6. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент.: «Ўзбекистон», 1978. – Б. 79.
7. Маҳмуд Кошғарий, Туркий сўзлар девони (Девону луғот ит-турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи
8. С. М. Муталлибов. 3 томлик. Индекс-луғат. Ғ. Абдурахмонов ва С. Муталлибовлар иштироки ва таҳрири асосида. – Тошкент.: Фан, 1967. – Б. 253.
9. User Ş.H. Köktürk ve Ötüken Uygur Kağanlığı Yazıtları. Söz Varlığı İncelemesi. 1. Baskı. – Konya: Kömen Yayınları, 2009. – S. 181, 292.
10. Беҳбудий М. Сарт сўзи мажҳулдир / Беҳбудий Маҳмудхўжа. Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган 2- нашри. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б. 193-199; Маликов А.М. Тюркские этнонимы и этнотопонимы долины Зерафшана (XVIII – начало XX в.). – Тошкент., 2018. – С. 93–94.
11. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома Нашрга тайёрловчи Шамсиев П. – Тошкент.: Юлдузча, 1989. – Б. 172.
12. Каюмов А. Этническая ситуация на территории Южного Узбекистана в XIX – начале XX века. Автореф. дисс....канд. ист.наук. – Тошкент.: ИИ АН РУз, 2011. – С. 13–14.
13. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 50–55.
14. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 17-20.
15. Usmonov F. ETHICS OF SCIENCE: MORAL PRINCIPLES AND THEIR ROLE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY //Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 41-45.
16. Ризаев И. И. Механизмы самоорганизации социальных систем //Экономика и социум. – 2019. – №. 3 (58). – С. 368-371.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).